| <b>Aliyev Bekzod Ilhomovich</b>                                                                                                                                    |     |
| ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ<br>УЧЁТА И АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ<br>ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ ..... | 301 |
| <b>Холикова Дурдона Бунёдjon кизи</b>                                                                                                                              |     |



|                                                                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| TOSHKENT VILOYATIDA ISHLAB CHIQUARISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI.....                     | 308 |
| <b>Salimov Burxoniddin</b>                                                                                                                          |     |
| IJTIMOIIY-IQTISODIIY ADOLATNI TA'MINLASHDA SINERGETIK YONDASHUV: ZANJIRLI ADOLAT KONSEPSIYASI.....                                                  | 314 |
| <b>Alimov Nasimjon Hoshimovich</b>                                                                                                                  |     |
| AQLLI SHAHAR TIZIMIDA IJTIMOIIY SOHA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMLARI.....                                | 319 |
| <b>Radjabov Bunyod Abduxalilovich</b>                                                                                                               |     |
| QO'SHILGAN QIYMATNI TAQSIMLASHNING SAMARALI SOLIQ MEXANIZMIGA OID XORIJ TAJRIBALARI.....                                                            | 326 |
| <b>A.A. Bobomurodov</b>                                                                                                                             |     |
| O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT" TIZIMIGA O'TISH ZARURIYATI VA XIZMATLAR SOHASI UCHUN IQTISODIIY AHAMIYATI.....                                 | 333 |
| <b>Y.M.Xalikov</b>                                                                                                                                  |     |
| OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....                                                | 342 |
| <b>Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li</b>                                                                                                             |     |
| YOSHLARNING RAQAMLI MEHNAT PLATFORMALARIDA BARQAROR BANDLIGINI RISKKA ASOSLANGAN STRATEGIK BOSHQARISH.....                                          | 349 |
| <b>Palvonova Sevara Baxromovna</b>                                                                                                                  |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                 | 355 |
| <b>Almanov Ilhom Sultonovich</b>                                                                                                                    |     |
| MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI GEYMIKATSIYALASH ASOSIDA TA'LIM SIFATI VA IQTISODIIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH .....                                  | 362 |
| <b>Aslonova Rushano Ilxomovna</b>                                                                                                                   |     |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIIY NATIJADORLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH.....                               | 368 |
| <b>Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi</b>                                                                                                      |     |
| HUDUDLARNING IQTISODIIY RIVOJLANISHIDA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....                               | 374 |
| <b>Xolmatov Azamatjon Abdupattoyevich</b>                                                                                                           |     |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКСПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКСПОРТНОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ..... | 380 |
| <b>Муниса Турдибаева</b>                                                                                                                            |     |
| LOYIHA MENEJERLARINING SOFT SKILLS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING LOYIHALAR IQTISODIIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI .....                         | 394 |
| <b>Zairova Farida To'xtamurod qizi</b>                                                                                                              |     |
| TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIIY KO'RSATKICHLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH.....                     | 400 |
| <b>O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li</b>                                                                                                            |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI .....                                    | 407 |
| <b>Jumaev Sohob Baxodirovich</b>                                                                                                                    |     |
| O'ZBEKISTONDA RAQAMLI VA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TRANSFORMATSIYON MODELII.....                                                         | 412 |
| <b>Murodullayeva Guljaxon A'zamjon qizi</b>                                                                                                         |     |
| INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY VA USLUBIIY ASOSLARI .....                                                                            | 418 |
| <b>Djalilova Dilbar Abdikarim qizi</b>                                                                                                              |     |



|                                                                                                                                          |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING<br>INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI .....                           | 426 |
| <b>Olimboyeva Nazokat Abdujabbor qizi</b>                                                                                                |     |
| KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARIDA INTEGRALLASHGAN RISKKA<br>YO'NALTIRILGAN AUDIT MODELIDAN FOYDALANISH USLUBIYOTI.....                | 431 |
| <b>Muydinov Erkin Jamaldinovich</b>                                                                                                      |     |
| MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK<br>FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTIONAL MEXANIZMLARI ..... | 441 |
| <b>Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich</b>                                                                                                  |     |
| YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT FAOLIYATINI SOLIQ<br>MEXANIZMLARI ASOSIDA MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH .....                         | 446 |
| <b>O'rinoва Umida Qodirjonovna</b>                                                                                                       |     |

# YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT FAOLIYATINI SOLIQ MEXANIZMLARI ASOSIDA MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH



**O'rinova Umida Qodirjonovna**  
Namangan shahar 2-son texnikum o'qituvchisi  
Email: [umidaurinova1989@gmail.com](mailto:umidaurinova1989@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yengil sanoat korxonalarining eksport faoliyatini soliqlar orqali moliyaviy rag'batlantirishning nazariy va iqtisodiy asoslari tadqiq etilgan. Eksport salohiyatini oshirishda soliq siyosatining o'rni hamda soliq imtiyozlarining korxonalar moliyaviy imkoniyatlariga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, yengil sanoat korxonalarining eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, ishlab chiqarish quvvati, innovatsion texnologiyalar, mehnat unumdorligi, marketing va logistika imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda eksportni rag'batlantirishning mavjud mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy yondashuvlar umumlashtirilgan. Maqolada soliq rag'batlarining samaradorligini eksport hajmi, investitsiyalar, mehnat unumdorligi va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari asosida kompleks baholash zarurligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** yengil sanoat, eksport salohiyati, eksport faoliyati, soliq siyosati, soliq mexanizmi, moliyaviy rag'batlantirish, soliq imtiyozlari, eksportni qo'llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalar, investitsiya faoliyati, raqobatbardoshlik, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish samaradorligi, tashqi bozor, davlat qo'llab-quvvatlashi.

**Abstract:** This article examines the theoretical and economic foundations of financially stimulating the export activities of light industry enterprises through taxation. The role of tax policy in increasing export potential and the impact of tax incentives on the financial capabilities of enterprises are highlighted. The article also analyzes the key factors affecting the export potential of light industry enterprises, including production capacity, innovative technologies, labor productivity, marketing, and logistics capabilities. The study summarizes scientific and theoretical approaches to improving existing mechanisms for stimulating exports. The article substantiates the need for a comprehensive assessment of the effectiveness of tax incentives based on indicators such as export volume, investment, labor productivity, and competitiveness.

**Keywords:** light industry, export potential, export activities, tax policy, tax mechanism, financial stimulation, tax incentives, export support, innovative technologies, investment activity, competitiveness, labor productivity, production efficiency, foreign markets, government support.

**Аннотация:** В статье исследованы теоретические и экономические основы финансового стимулирования экспортной деятельности предприятий лёгкой промышленности посредством налоговых инструментов. Освещены роль налоговой политики в повышении экспортного потенциала, а также влияние налоговых льгот на финансовые возможности предприятий. Кроме того, проанализированы основные факторы, влияющие на экспортный потенциал предприятий лёгкой промышленности, включая производственные мощности, инновационные технологии, производительность труда, маркетинговые и логистические возможности. В исследовании обобщены научно-теоретические подходы к совершенствованию существующих механизмов стимулирования экспорта. В статье обоснована необходимость комплексной оценки эффективности налоговых стимулов на основе показателей объёма экспорта, инвестиций, производительности труда и конкурентоспособности.

**Ключевые слова:** лёгкая промышленность, экспортный потенциал, экспортная деятельность, налоговая политика, налоговый механизм, финансовое стимулирование, налоговые льготы, поддержка экспорта, инновационные технологии, инвестиционная деятельность, конкурентоспособность, производительность труда, эффективность производства, внешний рынок, государственная поддержка.



## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalasi davlat iqtisodiy siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan yengil sanoat tarmog'ini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, valyuta tushumlarini ko'paytirish hamda mamlakatning tashqi iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, davlat tomonidan qo'llaniladigan iqtisodiy rag'batlantirish vositalari orasida soliq siyosati eng samarali mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy nazariyada moliyaviy rag'batlantirish deganda davlat tomonidan soliqlar, subsidiyalar, grantlar, imtiyozli kreditlar, kafolatlar va boshqa iqtisodiy vositalar orqali korxonalarining investitsiya va ishlab chiqarish faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi. Ushbu vositalar ichida soliq siyosati o'zining qamrovi, ta'sir doirasi va iqtisodiy samaradorligi bilan alohida o'rin egallaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mashhur olimlarning ilmiy qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq siyosati davlat budjeti daromadlarini shakllantirish vazifasi bilan bir qatorda iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya qilish va eksport faolligini kuchaytirishning muhim iqtisodiy vositasi ham hisoblanadi.

Mashhur ingliz olimi Brayan Tviss ta'kidlaganidek, innovatsiyalarni davlat tomonidan iqtisodiy rag'batlantirishning eng samarali vositalaridan biri soliq mexanizmlari hisoblanadi. Uning fikricha, korxona ixtiyorida qoladigan moliyaviy resurslar qancha ko'p bo'lsa, yangi texnologiyalarga investitsiya kiritish imkoniyati shuncha yuqori bo'ladi<sup>1</sup>.

MDH olimlaridan Yu. S. Glazkova sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanish mexanizmini tadqiq etar ekan, davlatning soliq siyosati korxonalarining innovatsion faolligiga bevosita ta'sir qilishini asoslab beradi. Uning fikricha, soliq imtiyozlari investitsiya qarorini qabul qilishda muhim iqtisodiy omil hisoblanadi<sup>2</sup>.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim professor Sh. A. Toshmatov ham korxonalar innovatsion faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim yo'nalishi ekanligini ta'kidlaydi. Uning ilmiy xulosalariga ko'ra, soliq vositalari orqali rag'batlantirish mexanizmlari milliy iqtisodiyotda yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport tarkibini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi<sup>3</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy yondashuvlar o'rganilib, mushohada qilingan. Tadqiqotda qo'yilgan maqsadga erishish uchun yo'nalish tanlab olingan. Birlamchi hamda ikkilamchi ma'lumot manbalarini chuqur o'rganish va asoslash uchun tadqiqot strategiyasi belgilab olingan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda keyingi yillarda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida soliqlar orqali moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, yengil sanoat tarmog'ida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda milliy mahsulotlarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son<sup>4</sup> Farmonida sanoatni modernizatsiya qilish, eksport hajmini oshirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish hamda investitsiya muhitini yanada yaxshilash iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilangan. Ushbu hujjatda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish va eksportbop mahsulotlar ulushini ko'paytirish davlat siyosatining muhim vazifasi sifatida qayd etilgan.

Davlatimizda eksportga yo'naltirilgan yengil sanoat korxonalarini soliqlar orqali moliyaviy rag'batlantirishning huquqiy, iqtisodiy va nazariy asoslari tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar korxonalarining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan kompleks

1 Twiss B. *Managing Technological Innovation*. — London: Pitman Publishing, 1992.

2 Глазкова Ю. С. Формирование механизма инновационного развития промышленного предприятия: Автореф. дисс... канд. экон. наук. — Челябинск, 2011. — 26 с.

3 Тошматов Ш. А. Корхоналар иқтисодий фаоллигини оширишда солиқлар ролини кучайтириш муаммолари. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: 2008. — 38 б.

4 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



chora-tadbirlarni o'z ichiga olmoqda. Biroq jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar, tashqi bozorlarda raqobatning kuchayishi hamda logistika xarajatlarining ortishi mazkur mexanizmlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etadi.

Yaponiyalik iqtisodchi olim Kenichi Omae global raqobat sharoitida eksportbop mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning muvaffaqiyati, birinchi navbatda, innovatsion boshqaruv, yuqori mehnat unumdorligi va davlat tomonidan yaratilgan qulay biznes muhitiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi<sup>5</sup>. Uning bu qarashi mamlakatimiz yengil sanoati uchun ham dolzarb hisoblanadi. Ushbu ilmiy qarashlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, eksport salohiyatini oshirishning zamonaviy modeli uchta asosiy yo'nalishga tayanadi:

- raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish;
- investitsiya va innovatsiyalarni rag'batlantirish;
- samarali soliq va institutsional siyosatni amalga oshirish.

Ushbu yo'nalishlarning har biri mamlakatimiz yengil sanoatida o'zaro uyg'un holda amal qilgandagina eksport hajmining barqaror o'sishi ta'minlanadi. Shuningdek, 2020–2025-yillarda mamlakatimizda eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ham aynan shu maqsadga xizmat qildi. Jumladan, eksport qiluvchi korxonalar uchun ayrim soliq tartib-taomillarini soddalashtirish, qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish jarayonlarini tezlashtirish, eksport oldi moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi choralar amalga oshiriladi. Bu islohotlar, ayniqsa, yengil sanoat korxonalarining aylanma mablag'larini ko'paytirish va tashqi bozorlarda faol ishtirok etishi uchun iqtisodiy zamin yaratdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud soliq rag'batlarining samaradorligini baholash bo'yicha yagona uslubiyat hali yetarli darajada shakllanmagan. Amalda ko'proq soliq imtiyozlari berilganligi hisobga olinadi, ammo ularning eksport hajmi, eksportdan tushgan valyuta tushumi, mehnat unumdorligi va investitsiyalar o'sishiga qay darajada ta'sir etganligi kompleks baholanmaydi.

Fikrimizcha, yengil sanoat korxonalarini soliqlar yordamida moliyaviy rag'batlantirish samaradorligini baholashda faqat berilgan soliq imtiyozlari miqdori emas, balki ular natijasida erishilgan eksport o'sishi, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining ortishi, yangi investitsiyalar jalb qilinishi, mehnat unumdorligi va tashqi bozorlar geografiasining kengayishi kabi ko'rsatkichlar kompleks ravishda baholanishi lozim. Korxonaning eksport salohiyati faqat eksport hajmi bilan emas, balki uni ta'minlovchi iqtisodiy imkoniyatlar, texnologik daraja, investitsiya faolligi va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan ham belgilanadi. Fikrimizcha, eksport salohiyatini baholashda quyidagi beshta:

- ishlab chiqarish samaradorligi;
- moliyaviy barqarorlik;
- innovatsion faollik;
- tashqi bozorlardagi raqobatbardoshlik;
- soliq vositalari orqali moliyaviy rag'batlantirish darajasi singari mezonlarni asosiy indikator (omil)lar sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq (1-jadval).

1- jadval  
Yengil sanoat korxonalari eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar<sup>6</sup>

| No | Omillar                    | Eksport salohiyatiga ta'siri                                          |
|----|----------------------------|-----------------------------------------------------------------------|
| 1  | Ishlab chiqarish quvvati   | Mahsulot hajmini oshiradi                                             |
| 2  | Innovatsion texnologiyalar | Sifat va raqobatbardoshlikni oshiradi                                 |
| 3  | Soliq rag'batlantirishi    | Moliyaviy resurslarni ko'paytirib, investitsiyalarni rag'batlantiradi |
| 4  | Mehnat unumdorligi         | Tannarxni kamaytiradi                                                 |
| 5  | Marketing siyosati         | Yangi tashqi bozorlarni egallash imkonini oshiradi                    |
| 6  | Logistika tuzilmasi        | Eksport xarajatlarini qisqartiradi                                    |
| 7  | Xalqaro standartlar        | Eksport bozorlariga kirish imkoniyatini kengaytiradi                  |
| 8  | Davlat qo'llab-quvvatlashi | Eksport o'sishini rag'batlantiradi                                    |

Yuqoridagi jadval tahlilidan ko'rinadiki, eksport salohiyati ko'p omilli iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uni baholashda faqat eksport hajmi emas, balki korxonaning texnologik, moliyaviy, innovatsion va institutsional imkoniyatlarini ham hisobga olish zarur. Ayniqsa, tadqiqot mavzusi nuqtai nazaridan soliq vositalari orqali moliyaviy rag'batlantirish eksport salohiyatini oshirishning zarur iqtisodiy instrumenti sifatida qaralishi lozim.

<sup>5</sup> Ohmae K. *The Borderless World: Power and Strategy in the Interlinked Economy*. – New York: Harper Business, 1990.

<sup>6</sup> Муаллиф томонидан илмий адабиётлар асосида тузилди.



Iqtisodiyotda eksport salohiyatini shakllantirishga nisbatan resurs yondashuvi, institutsional yondashuv va innovatsion yondashuv kabi ilmiy qarashlar mavjud. Resurs yondashuviga ko'ra, eksport salohiyatining asosiy ishlab chiqarish omillari – mehnat, kapital, tabiiy resurslar va texnologiyalar tashkil etadi. Institutsional yondashuv esa davlat tomonidan yaratilgan huquqiy va iqtisodiy muhitning ahamiyatini birinchi o'ringa qo'yadi. Innovatsion yondashuv tarafdorlari esa eksport raqobatbardoshligining asosiy manbai ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va innovatsiyalar ekanligini ta'kidlaydilar.

Fikrimizcha, mazkur yondashuvlarni bir-biridan ajratib qarash maqsadga muvofiq emas. Aksincha, yengil sanoat korxonalarining eksport salohiyati ushbu uchta omilning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi.

Yengil sanoat korxonalarining eksport salohiyatini oshirishda klaster tizimini joriy qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Paxta-to'qimachilik klasterlari xomashyo yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulot eksport qilishgacha bo'lgan jarayonni shakllantiradi. Bu esa mahsulot tannarxini pasaytirish, sifatini yaxshilash va tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Andijon, Namangan, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlarida faoliyat yuritayotgan qator yirik to'qimachilik korxonalarining zamonaviy texnologik liniyalarni ishga tushirishi natijasida Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Rossiya, Xitoy va Yaqin Sharq davlatlariga eksport hajmini oshirishga erishgan. Bunday holat eksport salohiyatining texnologik modernizatsiya bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq eksport hajmining o'sishi har doim ham eksport salohiyati yuqori ekanligini anglatmaydi. Chunki ayrim hollarda eksportning o'sishi tashqi bozorlardagi narx konyunkturasi yoki valyuta kursining o'zgarishi hisobiga ham yuz berishi mumkin. Shuning uchun eksport salohiyatini baholashda sifat ko'rsatkichlari ham hisobga olinishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, yengil sanoat korxonalarining eksport salohiyatini soliqlar yordamida moliyaviy rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirishda soliq siyosati, investitsiya siyosati, innovatsion rivojlanish, tashqi savdo infratuzilmasi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yagona tizim sifatida shakllantirilishi lozim. Faqat shundagina mazkur mexanizm yuqori iqtisodiy samara berishi mumkin.

Demak, yengil sanoat tarmoqlari tomonidan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, tashqi bozorlarda milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini mustahkamlash korxona eksport salohiyatini yanada yuksalishiga xizmat qiladi hamda kelgusida eksport siyosati bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Twiss B. Managing Technological Innovation. – London: Pitman Publishing, 1992.
2. Bahriddinov, N. (2026). FINANCIAL STIMULATION OF INNOVATIVE ACTIVITIES OF ENTERPRISES THROUGH INVESTMENTS. Innovation Science and Technology, 2(1).
3. Глазкова Ю. С. Формирование механизма инновационного развития промышленного предприятия: Автореф. дисс... канд. экон. наук. – Челябинск, 2011. – 26 с.
4. Тошматов Ш. А. Корхоналар иқтисодий фаоллигини оширишда солиқлар ролини кучайтириш муаммолари. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: 2008. – 38 б.
5. Бахриддинов, Н. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ ЖАДАЛЛАШТИРИШ ВА СОЛИҚЛАР ЁРДАМИДА РАҒБАТЛАНТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS, 68.
6. Ohmae K. The Borderless World: Power and Strategy in the Interlinked Economy. – New York: Harper Business, 1990.
7. <https://www.lex.uz>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 8/2**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>